

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**2017 — 2021-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISIGA
IXTISOSLASHTIRILGAN NEYROXIRURGIYA YORDAMI KO‘RSATISHNI YANADA
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son [qarorini](#) ijro etish yuzasidan, shuningdek, respublika aholisiga ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya yordami ko‘rsatishni yanada rivojlantirish va yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar neyroxirurgiya xizmatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

neyroxirurgiya xizmatining normativ-huquqiy bazasini va uning tuzilmasini yanada takomillashtirish, jahon standartlari talablarini hisobga olgan holda neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

zamonaviy yuqori texnologik davolash-diagnostika uskunalari bilan jihozlangan zamonaviy davolash-diagnostika bo‘limlari va operatsiya bloklarini qurish yo‘li bilan ilg‘or jahon yutuqlari darajasida neyroxirurgik kasalliklar diagnostikasi, ularni davolash va profilaktikasining eng samarali va yuqori texnologik usullaridan respublika aholisining foydalanishini va ehtiyojini ta‘minlash;

respublikaning barcha mintaqalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlagan holda kadrlar salohiyatini mustahkamlash, neyroxirurg vrachlarning o‘z maktabini shakllantirish va rivojlantirish;

neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolash sohasida mamlakatda ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, ularni amaliy sog‘liqni saqlashga joriy etish;

yetakchi ixtisosli xorijiy tibbiyot tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, axborotni, to‘plangan tajriba va mutaxassislarni keng almashishni ta‘minlash.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) respublika aholisiga neyroxirurgiya yordami ko‘rsatish bo‘yicha bosh tibbiyot tashkiloti hisoblanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish;

mavjud tibbiyot texnikasi parkini doimiy ravishda yangilash va modernizatsiyalashni ta‘minlash, Markazni zamonaviy xalqaro talablar darajasida yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish imkonini beruvchi zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash;

Markaz faoliyatini ta‘minlash uchun moliyaviy va moddiy-texnik resurslarni jalb etish bo‘yicha menejment va marketing ishlarini tashkil etish;

Markaz tibbiyot xodimlarining kasbiy darajasini, shu jumladan neyroxirurgik kasalliklar diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullari bo‘yicha mutaxassislarning yetakchi xorijiy tibbiy ta‘lim muassasalari va klinikalarida tajriba orttirishni tashkil etish hisobiga doimiy ravishda oshirish va takomillashtirish;

neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolash bo‘yicha o‘z ilg‘or usullarimiz va texnologiyalarimizni ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

neyroxirurgik kasalliklarni davolash va ular diagnostikasini doimiy ravishda takomillashtirish va o‘zimizning patentlangan usullarimiz va texnologiyalarimiz xalqaro e‘tirof etilishiga erishish;

hududiy ixtisosli tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish, tibbiy yordam ko‘rsatishning zamonaviy usullari va texnologiyalarini ular amaliyotiga joriy etish, mintaqalarda zarur profilaktik ishlar amalga oshirilishiga ko‘maklashish, sayyor konsultatsiyalar, mahorat darslarini muntazamlilik asosida amalga oshirish.

4. 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya yordami ko‘rsatishni yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar (keyingi o‘rinlarda Kompleks chora-tadbirlar deb ataladi) **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilab qo'yilsinki, Kompleks chora-tadbirlar tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar "Sog'liqni saqlash" tarmog'i bo'yicha nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

neyroxirurgiya sohasida tibbiyot tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning yagona metodik vertikali shakllantirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi neyroxirurgiya xizmatining tashkiliy tuzilmasini bir oy muddatda tasdiqlasin;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda Kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun xorijiy davlatlar, xalqaro moliya tashkilotlarining imtiyozli kreditlarini (qarzlarini) va grantlarini hamda boshqa budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rsin.

(6-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-iyundagi 393-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2021-y., 09/21/393/0596-son)

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri A.K. Shodmonov zimmasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 24-oktabr,
867-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 867-son qaroriga
ILOVA

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya yordami ko‘rsatishni yanada rivojlantirish bo‘yicha

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbirlar	Bajarish muddatlari	Summa	Moliyalash- tirish manbai	Mas’ul bajaruvchilar	Amalga oshirish mexanizmi
I. Respublika neyroxirurgiya xizmatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish						

1	O'zbekiston Respublikasi aholisiga neyroxirurgiya yordami ko'rsatish tizimida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, neyroxirurgiya yordami ko'rsatishning turli darajalarida barcha tarkibiy bo'linmalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash..	2018-yil I chorak			Sog'liqni saqlash vazirligi	Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish. Sog'liqni saqlash vazirligining neyroxirurgiya yordami ko'rsatishning barcha bosqichlarida aholiga bunday yordam ko'rsatuvchi davlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi buyrug'i.
2	Neyroxirurgiya sohasida davolash-diagnostika xizmatlari ko'rsatishning zamonaviy ilmiy asoslangan usullari va texnologiyalarini hisobga olgan holda neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar diagnostikasi va ularni davolashning standartlarini tasdiqlash.	2018-yil II chorak			Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	Sog'liqni saqlash vazirligining neyroxirurgik kasalliklar diagnostikasi va ularni davolash standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i, shuningdek, neyroxirurgik kasalliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari uchun klinik protokollar. Aholiga neyroxirurgiya yordami ko'rsatishni takomillashtirish, bemorlar hayoti sifatini yaxshilash.

3	Neyroxirurgik kasalliklar diagnostikasi va ularni davolashning yangi zamonaviy yuqori texnologik usullarini joriy etishni hisobga olgan holda neyroxirurgiya xizmati tibbiyot tashkilotlari uchun yangi shtat normativlarini tasdiqlash.	2018-yil II chorak			Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	Neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar diagnostikasi va shu jumladan, yuqori texnologik uskunalardan foydalangan holda ularni davolashning zamonaviy usullarini joriy etishni hisobga olgan holda yangi shtat normativlarini tasdiqlash.
4	Neyroxirurgik kasalliklarga chalingan va ularning asoratini boshdan kechirayotgan bemorlarning yagona elektron bazasini yaratish.	2018-2019 yillar		Bajaruvchilar va homiylar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlan-tirish vazirligi	Davolash va dinamik kuzatishga ehtiyoj sezuvchi aniqlangan neyroxirurgik patologiyali bemorlarning yagona elektron bazasini ishlab chiqish.

II. Neyroxirurgiya xizmati davlat tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash

5	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi binosining qurilishi bitkazilmagan blokini rekonstruksiya qilish, keyinchalik unda poliklinika-diagnostika bo'limini joylashtirish.	2017-2018 yillar 2017-yil 2018-yil	5,2 mlrd so'm shu jumladan: 3,0 mlrd so'm 2,2 mlrd so'm	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Budjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi)	Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Toshkent shahri hokimligi	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash. Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash va yangilash. Neyroxirurgik kasalliklarga chalingan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish shart-shartlarini yaxshilash va sifatini oshirish.
---	---	--	--	---	--	---

6	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining bug‘ qozonini qurish, unda yangi isitish uskunasini o‘rnatish.	2018-yil	2,0 mlrd so‘m	Jamg‘arma mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirligi, “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash. Isitish uskunasini xarid qilish va o‘rnatish. Neyroxirurgik kasalliklarga chalingan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatish shartlarini yaxshilash va sifatini oshirish.
7	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini, tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari klinikalarini va ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarining neyroxirurgiya bo‘limlarini, shu jumladan, bolalar bo‘limlarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash.	2019 — 2022-yillar 2019-yil 2020-yil 2021-yil 2022-yil	28,0 mln AQSh dollari shu jumladan: 3,0 mln AQSh dollari 5,0 mln AQSh dollari 10,0 mln AQSh dollari 10,0 mln AQSh dollari	Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	Zamonaviy yuqori texnologik davolash-diagnostika uskunalaridan foydalangan holda neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullarini joriy etish. Aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifati va hajmlarini oshirish.

8	Aholiga neyroxirurgiya yordami ko'rsatuvchi davlat tibbiyot tashkilotlarini neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlarni operatsiya qilish va davolashda foydalaniladigan tibbiy buyumlar bilan ta'minlash.	2017 — 2021-yillar	15 mln AQSh dollari	Jamg'arma mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi	Sog'liqni saqlash vazirligining aholiga neyroxirurgiya yordami ko'rsatuvchi davlat tibbiyot tashkilotlari orasida tibbiy buyumlarni taqsimlash bo'yicha buyrug'i. Tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojni 11 foizdan 90 foizgacha ko'paytirish. Davolashning barcha bosqichlarida neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash samaradorligi va sifatini oshirish. Bemorlarning hayoti sifatini yaxshilash va uzoq umr ko'rishishiga erishish.
---	---	--------------------	---------------------	-----------------------	---	--

III. Kadrlar salohiyatini mustahkamlash, yetakchi xalqaro tibbiyot markazlari bilan keng hamkorlik qilish

9	Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida neyroxirurgiya va neyroxirurglar uchun malaka oshirish kurslari bo'yicha klinik ordinatura tashkil etish yo'li bilan neyroxirurgiya xizmatining kadrlar salohiyatini (har yili 114 nafar vrach) yanada mustahkamlash, shuningdek, xirurg ixtisosligidagi vrachlarni neyroxirurg vrachlar etib qayta tayyorlash.	2017 — 2021-yillar	526,7 mln so'm	Har yili ajratiladigan budget mablag'lari doirasida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	Neyroxirurglarning malakasini oshirish va xirurg ixtisosligi vrachlarini neyroxirurg vrachlar etib qayta tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Neyroxirurgiya mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinaturaning o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.
---	---	--------------------	----------------	---	--	--

10	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari va respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi hamda ular filiallari vrachlarining xorijiy mamlakatlarning yetakchi klinikalarida "neyroxirurgiya" va "intervension neyroradiologiya" mutaxassisliklari bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli malaka oshirish kurslaridan o'tishi.	2017 — 2021-yillar	80,0 ming AQSh dollari	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	Etakchi xorijiy klinikalar va markazlar bilan tuzilgan shartnomalar va bitimlar bo'yicha mutaxassislarni ularga yuborish. Neyroxirurgiya xizmatini tashkil etish, neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar diagnostikasi va ularni davolashning yangi usullarini joriy etish masalalarida xalqaro tajribani o'rganish.
11	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (har yili 40 nafar tibbiyot hamshirasi, neyroxirurgiya bo'limlarining 5 nafar laboranti) va respublika o'rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirish markazi negizida har yili neyroxirurgiya bo'limlari tibbiyot hamshiralari va laborantlarining malakasini oshirish.	2017 — 2021-yillar	160,9mln so'm	Har yili ajratiladigan budjet mablag'ari doirasida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika o'rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirish markazi.	Ta'limning modul tamoyiliga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Neyroxirurgiya bo'limlari uchun yuqori malakali tibbiyot hamshiralari va laborantlar tayyorlash.

12	Aholiga amaliy tibbiy yordam ko'rsatgan holda Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi mutaxassislarning respublika mintaqalarida neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar diagnostikasi va ularni davolashning yangi usullarini joriy etish bo'yicha neyroxirurg vrachlar uchun mahorat darslarini tashkil etish.	2017 — 2021-yillar		Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	Mahorat darslari dasturlarini ishlab chiqish va yangilarini tasdiqlash. Mintaqaviy darajada neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullari bo'yicha neyroxirurg vrachlarning bilimlarini va malakasini hamda amaliy ko'nikmalarini oshirish.
13	Etakchi xorijiy tibbiyot markazlari va klinikalari bilan sheriklikni mustahkamlash yo'li bilan ilmiy ishlanmalarining zamonaviy jahon tajribasini mahalliy neyroxirurgiya amaliyotiga joriy etish. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi neyroxirurgiya klinikalari mutaxassislari ishtirokida neyroxirurgiya bo'yicha ilmiy konferensiyalar, treninglar va mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish.	2017 — 2021-yillar		Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, O'zbekiston neyroxirurg vrachlar assotsiatsiyasi	Etakchi xorijiy institutlar va klinikalar bilan shartnomalar tuzish. Jahon tajribasidan foydalangan holda neyroxirurgik kasalliklar diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullarini joriy etish.
IV. Neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlar profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolash sifatini oshirish						

14	Rejali neyroxirurgiya yordami ko'rsatishning 3-darajali tizimini tashkil etish, operatsiya qilishning murakkabligiga qarab mijozlarni ushbu darajalar o'rtasida qayta taqsimlash.	2017 — 2021-yillar			Sog'liqni saqlash vazirligi	Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i. Tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnika bazasidan oqilona foydalanish va malakali neyroxirurgiya yordami olishning barcha bosqichlarida aholining ulardan foydalanishini yaxshilash imkonini beruvchi darajali tizimni joriy etish.
15	Respublikaning davlat tibbiyot tashkilotlarida neyroxirurgik kasalliklarni barvaqt aniqlash skriningini joriy etish.	2019 — 2021-yillar			Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	Skrining tizimini optimallashtirish va neyroxirurgik kasalliklarni barvaqt aniqlash maqsadida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini vrachlari uchun mavzuli seminarlar o'tkazish. Yuqori malakali tibbiy yordam bergan holda kasallik rivojlanishining ilk bosqichlarida respublika aholisi orasida neyroxirurgik kasalliklarga chalinish xavfi bo'lgan guruhni aniqlash.

16	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm, Toshkent, Navoiy va Namangan viloyatlarining viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida neyroxirurgiya bo‘limlarini (15 o‘rinli) tashkil etish.	2018 — 2021-yillar		Har yili ajratiladigan budget mablag‘lari doirasida	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm, Toshkent, Navoiy va Namangan viloyatlari hokimliklari	Bolalarning malakali neyroxirurgiya yordamidan foydalanishini yaxshilash.
17	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida asab tizimining yurak-qon tomir patologiyasi bo‘limini tashkil etish yo‘li bilan insultlar profilaktikasi, barvaqt tashxis qo‘yish va davolashni takomillashtirish.	2018-yil		Bajaruvchining mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	Bosh miya tomir patologiyasi bilan og‘rigan mijozlar diagnostikasini optimallashtirish, davolashni yaxshilash. Aholiga neyroxirurgiya yordami ko‘rsatishni takomillashtirish, mijozlar hayoti sifatini yaxshilash.
18	Ambulatoriyada davolanadigan neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlarning vrach qabuliga yozilishining elektron tizimini yaratish.	2018-2019-yillar		Bajaruvchilar va homiylar mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Bemorlarning vrach qabuliga yozilishining yagona elektron tizimini yaratish yo‘li bilan neyroxirurgik kasalliklarga chalingan bemorlarga maslahat berishni optimallashtirish.

19	Qoraqalpog'iston, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida bosh miyaning tomir kasalliklariga chalingan bemorlarni davolashning endovaskulyar usullarini joriy etish.	2019 — 2021-yillar			Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslash-tirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	Bosh miya tomir patologiyasi bilan og'rigan mijozlar diagnostikasini, davolashni optimallashtirishni yaxshilash.
20	Shahrisabz tuman tibbiyot birlashmasida tumanlararo neyroxirurgiya bo'limini tashkil etish.	2018-yil		Har yili ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliyavazirligi, Iqtisodiyot vazirligi	Respublikaning chekka tumanlarida malakali neyroxirurgiya yordamidan foydalanishni oshirish.

Kompleks chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirishga jami sarf-xarajatlar:

7,88 mlrd so'm va 43,08 mln AQSh dollari

ulardan:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari
davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari
xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar mablag'lari va grantlari

mlrd so'm mln AQSh dollari

—	0,69	—	0,08
—	7,19	—	15,00
—		—	28,00

Izoh. Moliyalashtirishning uzil-kesil hajmlari loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan keyin aniqlanadi.

(ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-iyundagi 393-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2021-y., 09/21/393/0596-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2017-y., 09/17/867/0170-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2021-y., 09/21/393/0596-son)